

KOREYS TILIDAGI EMOTSIONAL BO‘YOQDORLIKKA EGA GAPLAR HAQIDA KOREYS TILSHUNOSLARINING NAZARIY QARASHLARI

Aslonova Husnida Botirjon qizi

O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Koreys tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası o`qituvchisi

email: aslonovahusnida@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola koreys tilida emotsional bo'yoqdorlikka ega gaplarga bag'ishlanadi. Unda koreys tilida emotsional bo'yoqdorlikka ega gaplarning qanday yasalishi, nimalar asosida yasalishi va qanday ma'no anglatishi chuqur tahlil qilinadi. Koreys tilida emotsional bo'yoqdorlikni ifoda etuvchi undov so'zlar va undov qo'shimchalar turlari, his-tuyg'uni ifodalovchi sifatlar va ularning gapda joylashish o'rni, qaysi so'zlar bilan birga qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Koreys tilidagi emotsional bo'yoqdorlikni ifodalovchi so'z va qo'shimchalarni gapdagi sintaktik o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, koreys tilida undov gaplarning yasalishining o'ziga xos xususiyatlari va boshqa tillardan farqi yoritiladi. Shu qatorda, koreys tilidagi emotsional bo'yoqdorlikka ega gaplardagi so'z va grammatik qo'shimchalarni o'zbek tilida aynan ekvivalenti bor yoki yo'qligi, tarjimada uning o'rnini qanday grammatik qo'shimcha yoki yuklama bosa olishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: emotsiya, bo'yoqdorlik, undov gap, undov so'z, grammatik qo'shimcha, his-tuyg'uni ifodalovchi sifatlar.

Annotation: This scientific article is devoted to the construction of emotionally charged sentences in Korean. An in-depth analysis was made of how and on the basis of what emotionally charged sentences are made, as well as what it matters. The article deals with exclamatory words and types of exclamatory affixes, their place in a sentence and their use with other parts of a sentence. The syntactic role of words and affixes in Korean sentences expressing emotional coloring is analyzed. It also highlights the features of the construction of exclamatory sentences in Korean and their differences from other languages. In addition, it is analyzed whether words and grammatical suffixes in emotionally charged sentences in Korean have an exact equivalent in Uzbek, and what grammatical suffixes or prepositions can replace them in translation.

Keywords: emotion, coloring, exclamation mark, exclamation word, grammatical suffixes, emotional adjectives.

Аннотация: Данная научная статья посвящена построению эмоционально окрашенных предложений в корейском языке. Был проведен глубокий анализ того, каким образом и на основе чего составляются эмоционально окрашенные предложения, а также, какое это имеет значение. В статье рассмотрены восклицательные слова и виды восклицательных аффиксов, их место в предложении и использование с другими частями предложения. Анализируется синтаксическая роль слов и аффиксов в корейских предложениях, выражающих эмоциональную окраску. Также освещаются особенности построения восклицательных предложений в корейском языке и их отличия от других языков. Кроме того, анализируется, имеют ли слова и грамматические суффиксы в эмоционально окрашенных предложениях на корейском языке точный эквивалент в узбекском языке, и какие грамматические суффиксы или предлоги могут заменить их в переводе.

Ключевые слова: эмоция, окраска, восклицательный знак, восклицательное слово, грамматические суффиксы, эмоциональные прилагательные.

KIRISH

O`zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o`rgatish bo`yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo`ladigan yangi tizimni yo`lga qo`yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o`quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat`iy talab har bir ta`lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim, ”[1,C.1] – deb ta`kidlaydi. Davlatimiz rahbari o`qituvchilarga munosib sharoit yaratish, malakasiga qarab ularni rag`batlantirish zarurligini ta`kidladi. Xalqaro sertifikatning dastlabki va o`rta darajasini olgan o`qituvchilarning oylik maoshiga 40 foiz, yuqori natija ko`rsatganlarga 50 foiz ustama berilishi belgilandi. Bundan tashqari, yuqori ball olgan o`qituvchilarga xalqaro sertifikat olish uchun test topshirish xarajatlari qoplab beriladi. Endilikda ishga qabul qilinayotgan chet tili o`qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo`lish talab etilmoqda. Ana shunday shart-sharoitlar yaratib berilayotgani chet tillarini mukammal o`rganish va chet tillari bo`yicha chuqur izlanishlar olib borishga undaydi. Hozirgi kunda g`arb

tillari bilan bir qatorda sharq tillarini o'rganishga bo'lgan talablar kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu ilmiy maqola koreys tilining ajralmas qismi bo'lgan undov gaplar va ularning grammatik xususiyatlariga bag'ishlangan. Ya'ni, koreys tilida emotsional bo'yoqdorlikka ega bo'lgan gaplarning tuzilishiga bag'ishlangan. Ma'lumki, har bir tilda shu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniyati, turmush tarzi va qadriyatlari bevosita o'z aksini topadi. Shuningdek, til doim jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni bir-birisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ushbu bog'liqlikning asosiy komponenti bo'lgan tilning vujudga kelishida esa, undovlar to'g'risidagi farazlar ham mavjud. Emotsional bo'yoqdorlikka ega bo'lgan gaplarni o'z navbatida undov gaplar deb ha yuritiladi. Koreys tilida undovlar gap turlaridan biri sifatida o'rganiladi. Undov gaplar so'zlashuv nutqida ko'p ishlatiladi. Uning yordamida nutqimiz jonliligi, ishonchliligi ortadi, nutqdagi his-tuyg'u bo'yog'ini beradi. Xalq tasavvuri va turmush tarzining turli xilligi sabab bir tildagi undov gap boshqa bir tildagi undov gap xususiyatlari bilan to'g'ri kelmaydi. Koreys tilini o'rganayotgan talabalar koreys tilidagi undov gaplarni ona tilida mavjud undov gaplarning xususiyatlari bilan solishtirish va talqin qilish natijasida ko'pgina muammoli vaziyatlarga duch kelishadi. Shu bilan birga, koreys tilidagi ba'zi undov gaplaroxirida undov tinish belgisi qo'yilmay berilishi ham, ularni undov gap sifatida o'rganishdagi qator muammolarni yuzaga keltiradi. Boshqa tillardan farqli o'laroq, koreys tilida so'zlovchi hissiyotini ifodalashda undov so'z va qo'shimchalardan keng foydalaniladi. Boshqa tillarda bu hissiyotlar ifodasi so'z yoki so'z birikmasi tarzida berilishi mumkin. Natijada esa, tarjima jarayonida undov so'z bilan ifodalanishi kerak bo'lgan voqelik mazmuni qisman o'zgaradi. Shu sababli koreys tilida undov gaplarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish masalasi bugungi kunda dolzarblik kasb etadi. Koreys tilida emotsional bo'yoqdorlikka ega gaplarga to'g'ri tasnif berish va ularni chuqurroq o'rganish uchun koreys tilshunos olimlarning aynan shu haqida olib borgan izlanishlari hamda yozgan ilmiy ishlarini tahlil qilish katta natija beradi.

ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYA

Koreyalik tilshunos olim Pyong Shi (평시) o‘zining “한국어-중국어 감탄 표현의 대비 연구” (“Koreys-xitoy tillaridagi his-hayajon ifodasini taqqoslash”) nomli ilmiy ishida koreys tilida emotsiyani ifodalashga quyidagicha ta‘rif bergan:

“감탄 표현은 다른 문장 유형과는 달리 화자 중심적이고 개인적인 발화여서 청자 에게 무엇인가를 전달하려는 의도가 적은 언어 표현이다. 따라서 화자는 사태에 대해 완전한 인식과정을 거쳐 발화로 표출해야 하는 필요성이 적어지고, 지각한 사태가 인식의 세계로 완전히 안착되지 않더라도 순간적으로 자신의 원초적인 발화를 표출해 버리는 것이 가능하다.” [2,C.85].

(3) 가. *아유, 날씨가 아주 좋군요.*

나. *아이고. 마침 잘 왔네.*

(4) 야. *정말 좋은 세상이다.*

(5) 가. *한국에서는 추석하고 설날이 가장 큰 명절이구나!*

나. *이 시간에 길이 얼마나 막히는데 택시를 타나?*

(6) *물이야!*

위의 예문을 보면 (3)은 한국어 감탄사과 감탄 종결어미가 나타난 전통적인 감탄 표현이다. (4)의 ‘야’ 뒤에 나타난 문장의 종결어미는 평서문 종결어미다. (5 가)는 부사와 감탄 종결어미가 나타난 감탄문이다. (나)는 의문형 감탄 표현이다. (6)은 문장의 생략형이 나타난 감탄 표현이다” [2,C.7].

(Boshqa gap turlaridan farqli o‘laroq, undov so‘zlovchiga yo‘naltirilgan va shaxsiy gap bo‘lgani uchun u biror narsani to‘liq yetkazish niyati kam bo‘lgan

lingvistik ifodadir. Demak, soʻzlovchining vaziyatni toʻliq tan olish jarayoni orqali ifodalash zarurati kamayadi, idrok olamida idrok etilayotgan vaziyat toʻliq oʻrnashmagan taqdirda ham uning dastlabki fikrini bir zumda ifodalash mumkin boʻladi.)

Yuqoridagi misolga qaraganda, (3) anʼanaviy undov iborasi boʻlib, unda koreyscha undov soʻzlari va undov kesimlik qoʻshimchasi bor. (4) dagi “ya”dan keyin kelgan kesimlik qoʻshimchasi darak gap oxirida keluvchi kesimlik qoʻshimchasi hisoblanadi. (5) olmosh va undov kelimlik qoʻshimchasidan iborat undov gap. B) undovning soʻroq ifodasi. (6) undov ifodasi boʻlib, unda gapning qisqartmasi paydo boʻladi. Koreys tilidagi emotsional boʻyoqdorlikka ega gaplarni undov soʻzlar, undov kesimlik qoʻshimchalari, olmoshlar va undov ohangi tashkil etadi.

No De Kyu (노대규) koreys tilida emotsional boʻyoqdorlikka ega gaplarga quyidagicha taʼrif bergan:

“감탄문이 말할이가 자기 자신의 정서나, 느낌이나, 또는 태도를 표현하는 데에 사용하는 문장이다. 감탄문에 있어서 감탄이란, 한 마디로 말하면, 말할이의 심리적 행위나 태도를 가리킨다고 할 수 있다. 이를 좀 더 구체적으로 말하면, 감탄이란 말할이가 명제 내용에 대한 사실, 관찰, 경험, 추론, 지각을 하고 정서적으로 표현한다” [3,C.32].

(Undov gap soʻzlovchi tomonidan oʻz his-tuygʻularini, yoki munosabatlarini ifodalash uchun ishlatadigan jumla sifatida taʼriflagan. Undov gapida “hayratlanish” soʻzlovchining psixologik xulq-atvori yoki munosabatini bir soʻz bilan ifodalaydi. Xususan, his-hayajon degani soʻzlovchi vaziyatni faktlar, kuzatishlar, tajribalar, xulosalar va tasavvurlarni his-tuygʻu bilan ifodalaganiga aytiladi.)

li Shi Ye (이시애) “감탄사를 정의해 보면, 감탄사는 기능면에서 다른 언어와 어떤 관계도 맺지 않고, 형태적으로 불변하는 문법적 성질을 가지며,

화자의 내면 상태나 정신 작용을 표출하거나 화자의 뜻을 전달하는 데에 상황 의존적으로 쓰이는 단어라고 정의할 수 있다” [4,C.313].

(Undov so‘z funksional tomondan boshqa so‘zlar bilan hech qanday aloqa bog‘lamaydi. U so‘zlovchining ichki holatini yoki aqliy harakatini ifodalash yoki so‘zlovchining niyatini bildirish uchun kontekstga bog‘liq holda qo‘llanadigan, hech qanday mansubliksiz, morfologik o‘zgarimas grammatik xususiyatga ega bo‘lgan so‘z sifatida ta’riflanishi mumkin.)

O‘sing Shin (오승신) koreys tilidagi undov so‘zlarni shunday ta’riflaydi:

“간투사의 정의는 발화에서 다른 단어와 통사적인 구조를 이루지 않으며, 형태적으로는 활용이나 파생을 하지 않고, 발화 당시의 화자의 내면 상태나 정신 작용을 표출하거나 화자의 뜻을 전달하는 데에 관례적으로 쓰이는 단어이다”¹ [5,C.300].

(Undov so‘z gapda boshqa so‘zlar bilan sintaktik tuzilma hosil qilmaydi, morfologik vazifa bajarmaydi. U so‘zlovchining gap vaqtidagi ichki holatini aks ettiradigan va yetkazadigan so‘zdir.)

Koreys tilidagi emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplarning tuzilishini tadqiq qilishda turli xil metodlardan foydalanildi. Asosan gaplarga emotsional bo‘yoqdorlik beruvchi undov so‘zlar va undov kesimlik qo‘shimchalari bilan gap tuzish, undov gaplarni koreys tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish, koreys undov so‘zlarining o‘zbek tilidagi ekvivalentini topish kabi metodlardan keng foydalanildi. Shuningdek, koreys tilshunoslarining fikr-mulohazalarini tahlil qilishda ham ularni chuqur o‘rganish, u fikrlar yuzasidan berilgan misollar bilan tanishish hamda mustaqil misollar tuzib ko‘rish metodlaridan foydalanildi.

¹ 오승신. 국어의 간투사 연구. 이화여자대학교, 1995.- 300 b.

NATIJALAR

Undov gap fikrni qattiq hayajon bilan ifodalab, kuchli ohangda aytiladigan gap bo'lib, koreys tilida undov gaplar asosan ikki xil usulda: undov so'zlar (감탄사) va undov qo'shimchalari (감탄종결사) orqali yasaladi. Undov so'zlar mustaqil ma'noli so'zlar bilan yordamchi so'zlar orasidagi bir kategoriya bo'lib, ularda leksik ma'no grammatik ma'no bilan dialektik birlikni tashkil qiladi. Undov so'zlar fonetik shakllanishi, morfologik butunligi, ekspressivligi va maxsus ohangi bilan, egalik kelishigi, shaxs, zamon kabi grammatik ma'noni anglatmasligi bilan boshqa so'zlardan ajralib turadi. Undov gap so'zlovchi tomonidan o'z his-tuyg'ularini, yoki munosabatlarini ifodalash uchun ishlatadigan jumla sifatida ta'riflanadi. U so'zlovchining ichki holatini yoki aqliy harakatini ifodalash yoki so'zlovchining niyatini bildirish uchun kontekstga bog'liq holda qo'llaniladi.

MUHOKAMALAR

Koreys tilidagi undov gaplar nutqda keng qo'llaniladi. Shuningdek, emotsional bo'yoqdorlikni beruvchi undov so'zlar va grammatik qo'shimchalarning boshqa ba'zi tillarda ekvivalenti yo'qligi ham ularni qanchalik qiziqiligi va o'rganishga, izlanishga munosib ekanligini bildirdi. O'zbek tilida aynan tarjimasini topilmasa, uni qanday boshqa so'z bilan yoki yuklama bilan ifodalanishi mumkinligini izlab topishni talab etadi.

XULOSA

Ushbu ilmiy maqolada koreys tilida emotsional bo'yoqdorlikka ega gaplarning qurilishi va undov gaplar, undov gaplarni yasovchi so'z va qo'shimchalar aynan koreyalik tilshunos olimlarning nazariy qarashlari yordamida ko'rib chiqildi. Izlanishlar natijasida quyidagicha xulosaga kelindi. Undov gaplar grammatik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa gap turlaridan farqlanadi. Bir qator o'ziga xos gaplarni undov gaplar kategoriyasiga birlashtiradi. Koreys tilida ham undovlar gap yoki gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi, so'zlovchining his-hayajoni, buyruq va istagini, ta'kid va javobini ifodalaydigan grammatik kategoriyadir. Shu bilan birga his-hayajon kabi inson tuyg'usining so'zlarda bevosita

инъикосидир. Undov gaplar ma'nosi ma'lum bir o'rin, vaqt va sharoitda aniqlanadi. Undov gapda ohang muhim o'rin tutadi. Chunki undov gaplar ma'lum ohang bilan aytilmasa, u his-tuyg'uni ifodalay olmaydi. Shuning uchun ohangning turlicha bo'lishiga qarab undov gaplar xilma xil his-tuyg'ularni anglatadi. Koreys tilida undov gaplar qurilishiga ko'ra ikki usul undov so'zlar va undov gap yasovchi qo'shimchalarga bo'linadi. Koreys tilidagi undov gap yasalishidagi yana bir o'ziga xos jihat bu undov gap qo'shimchalari hisoblanadi. Koreys urf-odatlarini va tarixiga nazar solsak, ularda yosh va amal tushunchalari alohida o'rin egallaydi. Shu sababdan ham undov gaplar qurilishidagi undov qo'shimchalar yoshva amalning katta yoki kichigligiga qarab ishlatiladi. Bu esa koreys tilining o'ziga xos xususiyatidir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, undov gapda maxsus undov so'z ishlatilmagan bo'lsada, kesimga qo'shilgan qo'shimchalar undov so'z bilan bir xil ma'noni anglatadi. Ko'p hollarda esa, gapda ham undov so'z, ham undovni anglatuvchi qo'shimchalar qo'shiladi. Koreys tilidagi undov gaplar grammatik tomondan butun bir gap vazifasini o'taydi, undagi undov so'z va qo'shimchalar esa gapdagi sintaktik birlikning ma'nosini kuchaytiradi, unga emotsional bo'yoq birlik ro'lini o'ynaydi. Shunday ekan, kelajakda bu mavzuga chuqur to'xtalib o'tish va samarali izlanishlar olib borish lozim degan xulosaga kelindi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://uza.uz> > posts
2. 평 시. 한국어-중국어 감탄 표현의 대비 연구. 단군대학교 대학원, - 2014.
3. 노대규. 한국어의 감탄문. - 국학자료원, -1997.
4. 이시애. 한국어 간투사 연구. 조선대학교, - 2011.
5. 오승신. 국어의간투사연구. 이화여자대학교, -1995.
6. <https://en.dict.naver.com/#/main>
7. <https://krdict.korean.go.kr/rus>
8. <http://library.ziyonet.uz/ru>
9. <https://uza.uz> > posts